

**FOLKLOR – XALQ MA’NAVIY MEROSINING MUHIM MANBAI
SIFATIDA URF – ODATLAR VA QADRIYATLARIMIZ TALQINIDA.
ФОЛЬКЛОР КАК ВАЖНЫЙ ИСТОЧНИК ДУХОВНОГО НАСЛЕДИЯ
НАРОДА — В ИНТЕРПРЕТАЦИИ НАШИХ ОБЫЧАЕВ И ЦЕННОСТЕЙ.
FOLKLORE AS AN IMPORTANT SOURCE OF PEOPLE'S SPIRITUAL
HERITAGE - IN THE INTERPRETATION OF OUR CUSTOMS AND
VALUES.**

**HALK KÜLTÜRÜ, GELENEK VE GÖRENEKLERIMIZIN VE
DEĞERLERIMIZIN YORUMLANMASINDA, HALKIN MANEVI
MIRASININ ÖNEMLİ BİR KAYNAĞI OLARAK ROL OYNAR.**

Shodiyeva Shahinabonu Shoirjon Qizi
O‘zbekiston Respublika Xalq Artisti “Tavakkal Qodirov”
Nomli Stipensiya Sohibasi
Farg‘ona Davlat Universiteti
Pedagogika- Psixologiya Va San‘atshunoslik Fakulteti
“Musiq Ta‘lim Va Madaniyat” Kafedrası
Musiq Ta‘lim Yo‘Nalishi
2 – Bosqich Talabasi

Shaxinashodiyeva617@Gmail.Com

Шодиева Шахинабону Шойржон Кизи
Лауреат Стипендии Имени “Таваккала Кодирова”
Республики Узбекистан
Ферганский Государственный Университет
Факультет Педагогики, Психологии И Искусств
Кафедра “Музыкального Образования И Культуры”
Руководство Музыкального Образования
Студент 2-Го Курса

Shaxinashodiyeva617@Gmail.Com

Shodiyeva Shahinabonu Shoirjon Kizi
Holder Of The Scholarship Named After "Tavakkal Kodirov"
Of The Republic Of Uzbekistan
Fergana State University
Faculty Of Pedagogy, Psychology And Art Studies
Department Of "Music Education And Culture"
Music Education Direction
2 - Nd Student

Shaxinashodiyeva617@Gmail.Com

Аннотатсия. Ushbu maqolada folklor xalq ma'naviy merosining muhim manbai sifatida o'rganilib, unda urf-odatlar va qadriyatlarimizning badiiy hamda ijtimoiy talqini tahlil qilinadi. Folklor namunalarida xalqning tarixiy tajribasi, dunyoqarashi, axloqiy me'yorlari va estetik qarashlari mujassam ekani ilmiy asosda yoritiladi. Maqolada ertak, doston, maqol, marosim qo'shiqlari kabi janrlar misolida milliy an'analarning avlodlar davomiyligida saqlanishi ko'rsatib beriladi. Shuningdek, folklorning yoshlar tarbiyasidagi roli, milliy o'zlikni anglash va madaniy merosni asrashdagi ahamiyati ochib beriladi. Tadqiqot natijalari folklor namunalarini zamonaviy madaniy jarayonlarda o'rganish va targ'ib etish zarurligini asoslaydi. Mazkur yondashuv xalqaro ilmiy hamkorlikni rivojlantirishga xizmat qiladi, madaniyatlararo muloqotni mustahkamlaydi, folkloriy merosni tizimli tadqiq etish imkonini beradi hamda kengaytiradi.

Калит so'zlar: folklor, xalq og'zaki ijodi, ma'naviy meros, milliy qadriyatlar, urf-odatlar, an'analar, marosim folklori, folklor janrlari, ertaklar, dostonlar, maqollar, rivoyatlar, afsonalar, xalq dunyoqarashi, badiiy tafakkur, milliy o'zlik, madaniy merosni saqlash, yoshlar tarbiyasi, estetik qadriyatlar, xalq pedagogikasi, folklor an'analari, madaniyatlararo muloqot, ijtimoiy qadriyatlar, tarixiy xotira, og'zaki ijod namunalari, milliy madaniyat, folklor tadqiqotlari, an'anaviy san'at, xalq ruhiyati.

Аннотация. В данной статье рассматривается фольклор как важный источник духовного наследия народа, анализируется его художественная и социальная интерпретация наших традиций и ценностей. Научно доказано, что образцы фольклора воплощают исторический опыт, мировоззрение, моральные нормы и эстетические взгляды народа. В статье показано сохранение национальных традиций из поколения в поколение на примере таких жанров, как сказки, эпосы, пословицы и ритуальные песни. Также раскрывается роль фольклора в воспитании молодежи, его важность в понимании национальной идентичности и сохранении культурного наследия. Результаты исследования обосновывают необходимость изучения и популяризации образцов фольклора в современных культурных процессах. Такой подход способствует развитию международного научного сотрудничества, укрепляет межкультурный диалог и позволяет проводить систематические исследования и расширять фольклорное наследие.

Ключевые слова: фольклор, устный фольклор, духовное наследие, национальные ценности, обычаи, традиции, ритуальный фольклор, жанры фольклора, сказки, эпосы, пословицы, легенды, мифы, народное мировоззрение, художественное мышление, национальная идентичность, сохранение культурного наследия, образование молодежи, эстетические ценности, народная педагогика, фольклорные традиции, межкультурный диалог, социальные ценности, историческая память, примеры устного творчества,

национальная культура, фольклорные исследования, традиционное искусство, народный дух.

Abstract. *This article studies folklore as an important source of the spiritual heritage of the people, analyzing its artistic and social interpretation of our traditions and values. It is scientifically proven that folklore samples embody the historical experience, worldview, moral standards and aesthetic views of the people. The article shows the preservation of national traditions through generations using the example of genres such as fairy tales, epics, proverbs, and ritual songs. It also reveals the role of folklore in the education of young people, its importance in understanding national identity and preserving cultural heritage. The results of the study substantiate the need to study and promote folklore samples in modern cultural processes. This approach serves to develop international scientific cooperation, strengthens intercultural dialogue, and enables systematic research and expansion of folklore heritage.*

Key words: *folklore, oral folklore, spiritual heritage, national values, customs, traditions, ritual folklore, folklore genres, fairy tales, epics, proverbs, legends, myths, folk worldview, artistic thinking, national identity, preservation of cultural heritage, youth education, aesthetic values, folk pedagogy, folklore traditions, intercultural dialogue, social values, historical memory, examples of oral creativity, national culture, folklore studies, traditional art, folk spirit.*

Kirish.

Folklor — bu xalq tomonidan yaratilgan og‘zaki ijod namunalari majmui hisoblanadi. U xalqning turmush tarzi, dunyoqarashi, urf-odatlar, an‘analari, axloqiy qarashlari va estetik tafakkurini o‘zida aks ettiradi. Folklorga ertaklar, dostonlar, qo‘shiqlar, maqollar, topishmoqlar, afsonalar, rivoyatlar, marosim qo‘shiqlari va boshqa og‘zaki ijod turlari kiradi. Folklor asarlarining asosiy xususiyati shundaki, ular ko‘pincha aniq muallifga ega bo‘lmaydi va avloddan-avlodga og‘zaki ravishda yetkaziladi. Folklor xalqning tarixiy xotirasi, ma‘naviy merosi va milliy qadriyatlarini saqlovchi muhim manba hisoblanadi. U nafaqat badiiy ijod, balki xalqning hayotiy tajribasi va ijtimoiy qarashlarini ifodalovchi madaniyat hodisadir. “Folklor” so‘zi ingliz tilidan kirib kelgan. Ushbu atama ikki so‘zdan tashkil topgan:

Folk — xalq.

Lore — bilim, donolik,
urf-odat, tajriba.

Demak, “folklor” so‘zi “xalq donoligi” yoki “xalq bilimi” degan ma‘noni anglatadi.



Bu atamani birinchi marta ingliz olimi - **Uilyam Toms (William Thoms)** 1846-yilda ilmiy muomalaga kiritgan.

U xalq og‘zaki ijodi namunalarini umumiy nom bilan atash zarurligini ta’kidlab, ushbu terminni taklif qilgan.

Folklor har bir xalqning asrlar davomida shakllangan ma’naviy boyligi, tarixiy xotirasi hamda madaniy merosining ajralmas qismi hisoblanadi. U xalqning turmush tarzi, dunyoqarashi, urf-odatlari, an’analari,

axloqiy me’yorlari hamda estetik qarashlarini o‘zida mujassam etgan noyob hodisa sifatida namoyon bo‘ladi. Folklor xalq og‘zaki ijodi shaklida yuzaga kelib, avloddan-avlodga og‘zaki tarzda yetkazilib kelinadi. Shu sababli folklor namunalarida xalqning tarixiy tajribasi, hayotiy qarashlari, ijtimoiy munosabatlari hamda ma’naviy qadriyatlari badiiy ifoda orqali aks etadi. U nafaqat badiiy ijod mahsuli, balki xalqning ruhiy olamini ifodalovchi muhim manba hisoblanadi. O‘zbek folklori o‘zining janr jihatidan rang-barangligi, mazmunan boyligi va badiiy yuksakligi bilan alohida e’tiborga loyiqdir. Ertaklar, dostonlar, maqollar, topishmoqlar, rivoyatlar, afsonalar hamda marosim qo‘shiqlari xalq hayotining turli jihatlarini aks ettiradi. Ayniqsa, folklor asarlarida xalqning qadimiy an’analari, urf-odatlari va milliy qadriyatlari chuqur ifodalanagan. Masalan, dostonlarda xalqning jasorat, vatanparvarlik, sadoqat, do‘stlik kabi fazilatlari ulug‘lanadi. Ertaklarda esa ezgulik va yovuzlik o‘rtasidagi kurash, adolat va haqiqat g‘oyalarining ustuvorligi yoritiladi. Maqol va matallarda xalqning asrlar davomida shakllangan hayotiy tajribasi, axloqiy qarashlari hamda donishmandligi mujassam bo‘ladi. Folklor urf-odat va qadriyatlarni saqlash hamda rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi. Har bir xalqning marosimlari, bayramlari, oilaviy va ijtimoiy an’analari folklor orqali ifodalanadi. Masalan, to‘y marosimlari, Navro‘z bayrami, bolalar bilan bog‘liq marosimlar hamda turli udumlar folklor namunalarida keng aks etadi. Bu jarayonlar orqali xalqning milliy o‘zligi, madaniy merosi va ijtimoiy qadriyatlari mustahkamlanadi. Folklor asarlarida ifodalanagan urf-odatlar yosh avlodni milliy ruhda tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki folklor orqali yoshlar ajdodlarining hayotiy tajribasi, ma’naviy qarashlari hamda axloqiy me’yorlarini o‘rganadilar.

Bugungi globallashuv jarayonida milliy qadriyatlarni asrash va rivojlantirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Zamonaviy axborot texnologiyalari, madaniyatlararo integratsiya hamda global madaniy jarayonlar milliy an’analar va qadriyatlarga turlicha ta’sir ko‘rsatmoqda. Bunday sharoitda folklor xalqning tarixiy xotirasini saqlash, milliy madaniyatni asrash hamda ma’naviy merosni kelajak avlodlarga yetkazishda muhim ahamiyatga ega. Folklorni ilmiy o‘rganish, uni tizimli ravishda tadqiq etish hamda zamonaviy madaniy jarayonlarga mos ravishda



targ'ib qilish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Folklor xalqning ijtimoiy hayoti, ma'naviy tafakkuri va estetik qarashlarini o'rganishda ham muhim ilmiy manba hisoblanadi. U orqali jamiyatning tarixiy taraqqiyoti, ijtimoiy munosabatlari, xalqning dunyoqarashi hamda ma'naviy qadriyatlari haqida muhim ilmiy xulosalar chiqarish mumkin. Shu bilan birga, folklor adabiyotshunoslik, etnografiya, madaniyatshunoslik, pedagogika kabi fanlar bilan uzviy bog'liq holda rivojlanadi. Bu esa folklorni kompleks tarzda o'rganish imkoniyatini yaratadi. Folklor xalq ma'naviy merosining muhim manbai sifatida urf-odatlar va qadriyatlarimizni o'zida mujassam etgan bebaho boylik hisoblanadi. Uni o'rganish, asrash va targ'ib qilish milliy madaniyatni rivojlantirish hamda yosh avlodni ma'naviy barkamol etib tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Folklor namunalarini ilmiy asosda tadqiq etish xalqning tarixiy xotirasini saqlash, madaniy merosni rivojlantirish va milliy o'zlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Folklor janrlari va ularning ma'naviy ahamiyati.

Folklor o'z janr jihatidan juda boy va rang-barangdir.

- ❖ **Ertaklar** – odob-axloqiy g'oyalarni, ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi kurashni aks ettiradi.
- ❖ **Dostonlar** – tarixiy voqealarni, qahramonlik va jasorat fazilatlarini ifodalaydi.
- ❖ **Maqollar va matallar** – xalqning donolik va hayotiy tajribasini jamlaydi.
- ❖ **Afsonalar va rivoyatlar** – tabiat hodisalari, ijtimoiy hayot va e'tiqodlarni tushuntiradi.
- ❖ **Marosim qo'shiqlari va bayramlar** – xalqning urf-odatlarini va ijtimoiy qadriyatlarini aks ettiradi.

Ushbu janrlar orqali folklor milliy qadriyatlarni, urf-odatlarni va axloqiy me'yorlarni saqlashda muhim rol o'ynaydi. Shu bilan birga, yosh avlodni milliy ruhda tarbiyalash, madaniy merosni uzluksiz ravishda yetkazish imkonini yaratadi.

Folklor va urf-odatlar, qadriyatlar

O'zbekiston va qirg'iziston davlatlari madaniyati qiyosida!

Hozirgi paytda dunyoning deyarli barcha mamlakatlarda folklor sektorlari mavjud. Shuningdek, turli mamlakatlarda xalqaro yoki muayyan mintqa bo'yicha har xil jamiyatlar ham bor. Masalan, YUNESKO huzuridagi Etnologiya va folklor xalqaro jamiyati, Xalq musiqasi xalqaro kengashi, Folklor o'rtoqlik jamiyati kabilar shunday ilmiy tashkilotlardir. Folklor urf-odatlar va qadriyatlarning badiiy ifodasi sifatida xalq hayotining barcha jabhalarini qamrab oladi. To'y, tug'ilgan kun, Navro'z, mavlud marosimlari va boshqa bayramlar folklor orqali shakllanadi va avloddan-avlodga uzatiladi. Folklor namunalarida xalqning axloqiy, ijtimoiy va ma'naviy qadriyatlari mujassam bo'ladi. Shu bois, folklor nafaqat ma'naviy merosni saqlash, balki jamiyatning ijtimoiy va madaniy rivojida ham muhim vosita hisoblanadi. [1, 1-2-bet].

Folklor va urf-odatlar har bir xalqning ma'naviy merosining ajralmas qismi bo'lib, ularning tarixiy xotirasi, madaniy qadriyatlari va ijtimoiy hayotini ifodalaydi. O'zbekiston va Qirg'iziston davlatlari markaziy Osiyoda joylashgan bo'lib, ularning folkloriy an'analari bir-biriga o'xshash jihatlarni saqlash bilan birga, alohida milliy xususiyatlarga ham ega. Ushbu maqolada ikki davlatning folklor va urf-odatlari qiyosiy tarzda tahlil qilinib, qadriyatlar va madaniy me'yorlarning umumiy va farqli jihatlari aniqlanadi.





Ushbu rasmdagi tasvirlarda ham ko‘rish mumkin o‘zbek va qirg‘iz millati xalqlari juda ham ba’zi jihatlari bilan o‘xshashroqdir.

O‘zbekiston folklori asosan doston, ertak, maqol, afsona, marosim qo‘shiqlari va turli bayram an‘analari orqali shakllangan. Qirg‘iziston folklori esa ko‘proq qahramonlik dostonlari, qo‘shiqlar, aytishmalar va xalq o‘yinlariga boy. Har ikki xalq folklorida qahramonlik, jasorat, donolik va tabiatga hurmat kabi umumiy qadriyatlar aks etadi.

Urf-odatlar va qadriyatlar

O‘zbek urf-odatlari asosan oila va ijtimoiy hayot bilan bog‘liq bo‘lib, to‘y, Navro‘z, tug‘ilgan kun marosimlari, oilaviy an‘analar orqali ifodalanadi. Folklor orqali xalq axloqiy qadriyatlarni, mehr-oqibat, hurmat va do‘stlikni yosh avlodga yetkazadi. Masalan, dasturxonda mehmonni kutib olish marosimi, uy marosimlaridagi qo‘shiqlar va ertaklar qadriyatlarni shakllantiradi.[2, 21-22-23-24-25]

Qirg‘iz urf-odatlari ko‘proq ko‘chmanchi hayot tarzi bilan bog‘liq bo‘lgan. Asosiy marosimlar — to‘y, malakali qahramonlik dostonlari, “Manas” epik dostonini o‘qish, xalq o‘yinlari va qishloq bayramlari. Qirg‘iz folklori va urf-odatlari o‘tmishdan kelgan jasorat, qahramonlik, mehmondo‘stlik, tabiat bilan uyg‘unlik kabi qadriyatlarni aks ettiradi.

- ❖ Har ikkala xalq folklorida og‘zaki ijod muhim o‘rin tutadi.
- ❖ Qahramonlik, axloqiy fazilatlar, tabiatga hurmat va urf-odatlar asosiy qadriyat sifatida saqlanadi.
- ❖ Folklor va urf-odatlar yosh avlodni tarbiyalash va milliy ruhda shakllantirishda ishlatiladi.
- ❖ O‘zbek folklori ko‘proq sedentary (qishloq va shahar hayotiga) moslashgan bo‘lsa, Qirg‘iz folklori ko‘chmanchi hayot tarzi bilan chambarchas bog‘liq.

- ❖ O'zbekiston folklorida ertak va maqol, matallar ko'proq tarqalgan, Qirg'izistonda esa epik dostonlar va xalq qo'shiqlari ustun.
- ❖ O'zbek urf-odatlarini oilaviy va ijtimoiy tizimga qaratilgan, Qirg'izistonda esa ko'proq qabila va tog'li hududlar hayotini aks ettiradi.
- ❖ O'zbek milliy bosh kiyimlarining turlari:



Qirg'iz xalqining boy folklor sanati va urf-odatlarini ko'chmanchi turmush tarzi, tabiat bilan uyg'unlik hamda epik an'analarga asoslanadi. Asosiy folklor namunasi — dunyodagi eng uzun dostonlardan biri sanalgan «Manas» eposi bo'lib, u og'zaki ijod, qo'shiqchilik (manaschi) va falsafani birlashtiradi. Yurt ko'tarish, ot o'yinlari va mehmondo'stlik asosiy urf-odatlardir.

❖ **«Manas» dostonchiligi:** Qirg'iz xalqining o'tmishi, birligi va qahramonligini tarannum etuvchi noyob epik asar.


❖ **Musiqasi asboblari:** Qo'biz, cho'or, qimuz (qirg'izcha: qomuz) kabi cholg'ular milliy kuylarning asosi hisoblanadi.

❖ **O'yinlar:** Ko'chmanchi madaniyatga xos ko'pkari (ulak tartish), qiz quvmoq va er o'g'ish (kurash) kabi ot sporti o'yinlari keng tarqalgan. Qirg'izlarning asosiy an'anaviy bosh kiyimlari:

1. Qalpoq (Ak Kalpak): Oq kigizdan tikilgan, to'rt qismdan iborat bo'lib, dunyoning to'rtta unsurini (olov, suv, havo, tuproq) anglatadi. U qirg'iz xalqining eng mashhur erkaklar bosh kiyimi hisoblanadi.



❖ Tebetey: 50 yoshdan oshgan erkaklar qishda kiyadigan, mo'ynali (tulki, suvsar) va qora baxmal bilan bezatilgan baland bosh kiyim.



❖ Malakay: Yosh yigitlar kiyadigan, kigizdan tayyorlanadigan va shakli an'anaviy qirg'iz chodiriga o'xshash bosh kiyim.



❖ Ayollar bosh kiyimi (Elechek): Turmushga chiqqan ayollar kiyadigan, oq matodan o'raladigan, tepasi ochiq yoki yopiq bo'lishi mumkin bo'lgan an'anaviy kiyim.



❖ **Yurt (o'y) madaniyati:** Ko'chmanchi hayot tarzi tufayli yurt — qirg'izlarning an'anaviy uyi bo'lib, u mehmondo'stlik va oilaviy qadriyatlar ramzidir.

❖ **To'y va a'za marosimlari:** Katta to'ylar (o'ljo), shuningdek, a'za marosimlarida o'ziga xos an'analari, qo'shiqlar (jokoo) ijro etiladi.

❖ **Mehmondo'stlik:** Mehmonga hurmat, qo'y so'yish va maxsus taomlar (beshbarmoq) tortish qirg'iz urf-odatlarining ajralmas qismidir.

❖ **Hunarmandchilik:** Kiyizdan buyumlar yasash (shirdak), kashtachilik va zargarlik san'ati rivojlangan.

Folklor va qadriyatlarning zamonaviy roli

Folklor har bir xalqning tarixiy xotirasi, ma'naviy merosi va milliy o'zligini ifodalovchi muhim madaniy hodisa hisoblanadi. U xalqning turmush tarzi, urf-odatlari, an'analari, e'tiqodlari hamda estetik qarashlarini o'zida mujassam etadi. Qirg'iziston va O'zbekiston xalqlari Markaziy Osiyo hududida azaldan yonma-yon yashab kelgani sababli ularning folklor an'analari, qadriyatlari va madaniy qarashlarida ko'plab o'xshashliklar mavjud. Hozirgi globallashuv jarayonida ushbu merosni saqlash, rivojlantirish hamda zamonaviy madaniy hayotga tatbiq etish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Qirg'iz va o'zbek folklorining asosiy bog'liqliklaridan biri ularning og'zaki ijod namunalarida yaqqol namoyon bo'ladi. Qirg'iz xalqining mashhur "Manas" eposi xalqning tarixiy kurashlari, qahramonlik an'analari va ma'naviy qadriyatlarini ifodalasa, o'zbek xalqining "Alpomish" dostoni ham xalq jasorati, vatanparvarlik va oilaviy qadriyatlarni targ'ib qiladi. Ushbu dostonlarda xalqning birlik, jasorat, mardlik va sadoqat kabi umuminsoniy qadriyatlari aks etadi. Bu o'xshashliklar ikki xalqning tarixiy ildizlari va madaniy aloqalarining mushtarak ekanligini ko'rsatadi. Milliy marosim va bayramlar ham folklor qadriyatlarining zamonaviy hayotdagi muhim ko'rinishlaridan biridir. Navro'z bayrami Qirg'iziston va O'zbekistonda keng nishonlanadi. Ushbu bayram orqali xalqning qadimiy an'analari, milliy taomlari,

o'yinlari, kuy-qo'shiqlari va raqslari namoyish etiladi. Navro'z nafaqat tarixiy bayram, balki xalqlar o'rtasida madaniy aloqalarni mustahkamlovchi omil sifatida ham muhim ahamiyatga ega. Bundan tashqari, nikoh marosimlari, beshik to'yi, sunnat to'yi kabi urf-odatlarida ham o'xshash folklor an'analari saqlanib qolgan.

Zamonaviy davrda folklor qadriyatlari madaniyat va san'at sohasida yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Xalq kuy-qo'shiqlari, milliy cholg'u asboblari va raqs san'ati zamonaviy sahna san'atida keng qo'llanilmoqda. Qirg'iziston va O'zbekistonda folklor ansambllari, milliy festival va tanlovlar tashkil etilishi yosh avlodni milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, xalq musiqa an'alarini zamonaviy estrada va akademik musiqa bilan uyg'unlashtirish orqali yangi ijodiy yo'nalishlar shakllanmoqda. Folklor qadriyatlarining rivojlanishida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining o'rni ham ortib bormoqda. Internet, ijtimoiy tarmoqlar, raqamli platformalar orqali folklor namunalari keng targ'ib qilinmoqda. Elektron kutubxonalar, raqamlashtirilgan qo'lyozmalar va audio-video arxivlar orqali folklor merosi saqlanib, kelajak avlodlarga yetkazilmoqda. Bu jarayon ilmiy tadqiqotlar olib borish va xalq ijodini xalqaro miqyosda targ'ib qilish imkonini bermoqda. Shuningdek, turizm sohasida ham folklor qadriyatlari muhim o'rin tutadi. Milliy festival, xalq o'yinlari, hunarmandchilik ko'rgazmalari va etnoturizm loyihalari orqali xalq madaniy merosi namoyish etilmoqda. Qirg'iziston va O'zbekistonda milliy liboslar, qo'lda tayyorlangan buyumlar, xalq amaliy san'ati mahsulotlari turistik brendga aylanib bormoqda. Bu esa iqtisodiy rivojlanish va madaniy almashinuv jarayoniga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Folklor qadriyatlari ta'lim tizimida ham muhim ahamiyatga ega. Maktab va oliy ta'lim muassasalarida milliy merosni o'rganishga qaratilgan fanlar, to'garaklar va madaniy loyihalar tashkil etilmoqda. Bu esa yosh avlodning milliy o'zligini anglashiga, ma'naviy barkamolligini shakllantirishga yordam beradi. Shu bilan birga, folklor tadqiqotlari ilmiy yo'nalish sifatida rivojlanib, xalq madaniyatini chuqur o'rganish imkonini yaratmoqda.

Bugungi kunda Qirg'iziston va O'zbekiston o'rtasida madaniy hamkorlik ham kengayib bormoqda. Qo'shma festival, ilmiy konferensiya, folklor ekspeditsiyalari va madaniy almashinuv dasturlari ikki xalqning umumiy madaniy merosini rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Bu jarayon mintaqaviy madaniy integratsiyani mustahkamlash va xalqlar o'rtasidagi do'stlikni yanada kuchaytirishda muhim omil hisoblanadi.

Folklor va milliy qadriyatlar zamonaviy jamiyatda nafaqat tarixiy meros, balki madaniy rivojlanish, ma'naviy tarbiya va xalqaro madaniy aloqalarni mustahkamlovchi muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Qirg'iziston va O'zbekiston xalqlarining folklor an'analari o'zaro yaqin bo'lib, ular bugungi kunda yangi ijodiy, ilmiy va iqtisodiy imkoniyatlar yaratishda muhim rol o'ynamoqda.

Folklor merosini asrab-avaylash va uni zamonaviy madaniy hayot bilan uyg'unlashtirish kelajak avlodlar uchun bebaho ma'naviy boylik bo'lib xizmat qiladi.

Tavsiyalar yangicha xalqaro do'stliklikning abadiylashishi uchun.

Ushbu maqoladan qisqacha tushuncha shuki, barcha xalq va millatlararo hamjihatlik, do'stlik an'alarini mustaxkamlab tarixiy ildizini yanada kengaytirish. Bu yuksalish bosqichini amalda keng targ'ib etish uchun esa, nafaqat davlatlararo xalqaro konferensiyalar balki, festivallar, xalqaro tanlovlar ham ijodiy ham ilmiy, jamoaviy xalqlar suhbatlari davomiy imkoniyatlar bo'lsa nafaqat o'z xalqimizning urf – odatlari va imkoniyatlar balki, barcha davlat, millat yoki xalqning an'analari, ijodiy faoliyatlari va yaratilayotgan yangi imkoniyatlardan bohabar bo'lishga muvaffaq bo'lar edi. Balki, o'zbek madaniyat markazlari nafaqat ushbu Qirg'iziston davlatida barcha davlatlararo xalq madaniyati va ijodi markazlari tashkil etilsa bu juda ham an'ana, folklor (xalqning nafaqat urf – odatlari va ilmiy va ijodiy saviyasi xalqlararo yuksalishi) markazlari hamkorlik tarzida qo'llab – quvvatlanishi. Misol uchun:

“O'zbekistonda xalqaro ijodiy va an'anaviy xalqlar qadriyati almashinuvi markazi”

“кыргызстандагы элдердин эл аралык чыгармачылык жана салттык баалуулуктарды алмашуу борбору”

“türkiye'de yaratıcı ve geleneksel halk değerlerinin değişimi için uluslararası merkez”

“международный центр обмена творческими и традиционными ценностями народов россии”

“international center for the exchange of creative and traditional values of peoples”

kabi davlatlararo markazlar tashkil etilsa ushbu markazda nafaqat o'zbek xalqi tarixi va hozirgi kundagi yuksalishi barcha davlatlarning hamkorligidagi urf – odat, an'ana, amaliy va nazariy davlatlar madaniyati almashinuvi targ'ib etiladi.

Xulosa

Ushbu maqoladan qisqacha xulosa xalqaro do'stlikni mustahkamlashda folklor, urf-odat va qadriyatlar muhim ma'naviy ko'prik vazifasini bajaradi. Folklor xalqning tarixiy xotirasi, turmush tarzi, orzu-intilishlari hamda ma'naviy qarashlarini o'zida mujassam etgan bebaho meros hisoblanadi. Ayniqsa, turli xalqlarning og'zaki ijodi, milliy qo'shiqlari, dostonlari, marosim va an'analari o'zaro madaniy yaqinlikni kuchaytiradi, xalqlar o'rtasida hurmat va hamjihatlik tuyg'ularini shakllantiradi.

Urf-odat va qadriyatlar esa har bir millatning o'ziga xosligini namoyon etish bilan birga, insoniy fazilatlar – mehr-oqibat, bag'rikenglik, mehmondo'stlik va hamkorlik kabi umumiy tamoyillarni targ'ib qiladi. Bugungi globallashuv jarayonida milliy qadriyatlarni asrab-avaylash, ularni zamonaviy talqinda rivojlantirish xalqaro madaniy aloqalarni kengaytirish uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Xalqlar o'rtasida folklor

festivallari, madaniy almashinuv dasturlari va ilmiy tadqiqotlar tashkil etilishi do'stlik rishtalarini yanada mustahkamlaydi.

Xalqaro do'stlikning abadiylashishi uchun milliy merosni chuqur o'rganish, yosh avlod ongida tarixiy qadriyatlar va madaniy hurmat tuyg'usini shakllantirish zarur. Shu bilan birga, turli xalqlarning folklor namunalari va urf-odatlarini targ'ib qilish orqali madaniyatlararo muloqotni rivojlantirish mumkin.

Natijada, xalqlar o'rtasida o'zaro tushunish, tinchlik va hamkorlik muhitini mustahkamlashga erishiladi. Folklor va qadriyatlar esa bu jarayonda nafaqat tarixiy meros, balki kelajak avlodlarni birlashtiruvchi ma'naviy asos bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Folklorshunoslik__Ensiklopeddiyasi.<https://uz.wikipedia.org/wiki/Folklorshunoslik>
2. J. Eshonqulov - Folklorshunosllika kirish. 2018 – yil.
<https://api.ziynet.uz/uploads/books/25896/5e7aef56069a2.pdf>